

2015-yil - Keksalarni e'zozlash yili

www.tongyulduzi.uz

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:51 (67008)

2014-yil

22-dekabr

TONG YULDUZI

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqqan boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

JIZZAX VILOYATIGA SAFAR MAXSUS SON



DIQQAT!

«Tong yulduzi»
gazetasiga **OBUNA**
bo'lishga shoshiling!



**SIZ VATAN FAXRISIZ,
SIZ - EL TAYANGHI.
KELAJAGI BUYUK YURT VORISLARI**



Zomin tumanidagi 6-umumta'lim
maktabi o'quvchilari o'zlarining
sevimli nashriga obuna bo'lishda
viloyatda peshqadam

Nashr ko'rsatkichi - 198



«TONG YULDUZI» – USTOZLAR MASLAKDOSHI,

– deydi Jizzax viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i Ergash JABBOV

– Ma'lumki, joriy yil boshidan mamlakatimizda «Sog'lom bola yili» Davlat dasturi doirasida ta'lim sohasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Boshlang'ich ta'limning sifatini yaxshilash, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, otionalar tibbiy madaniyatini oshirish, joylarda maktab va qishloq, shahar vrachlik punkti o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, bolalarning sog'lom bo'lib kamol topishlari uchun sport musobaqalarini tashkil etish kabi muhim vazifalarni ado etishga sa'y-harakat qilindi.

Ta'bir joiz bo'lsa, bugungi yosh avlodni baxtiyor yoshlar, deya ayta olamiz. Zero, Istiqol yillarida o'sib kelayotgan yosh avlod kamoloti yo'lida mamlakatimizda asrlarga tatigulik ishlar amalga oshirildi. Yaratilayotgan ushbu imkoniyatlardan viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan 545 ta umumta'lim muassasalarida tahsil olayotgan jizzaxlik yoshlar ham to'la-to'kis bahramand bo'lishmoqda. Bugungi kunda viloyatimizdagi mavjud ta'lim maskanlarida 198 843 nafar o'quvchi-yoshlar ta'lim olishmoqda. Yurt ertasi bo'lgan yoshlarimiz nafaqat viloyat, balki respublikamiz miqyosida tashkil etilayotgan fan olimpiadalar, bilimlar bellashuvi va turli ko'rik-tanlovlarda faxrli o'rinlarni egallab kelishayotgani biz ustozlarda o'zgacha g'urur uyg'otadi. O'rni kelganda alohida ta'kidlashni istardimki, maktablarimizda tahsil olayotgan yoshlarimizning barchasi o'quvchilarning sevimli nashri bo'lgan «Tong yulduzi» gazetasining doimiy



muxlislaridir. Yoshlarimiz tomonidan qo'lga kiritilayotgan ana shu muvaffaqiyatlar zamirida ustoz-murabbiylar bilan birgalikda yosh avlod ta'lim-tarbiyasi yo'lida maslakhlik qilib kelayotgan mazkur nashrning ham ulkan hissasi borligini e'tirof etishimiz kerak. Gazeta sahifalarida o'quvchilar uchun berib borilayotgan boshqotirmalar, savol va topshiriqlar, iqtidor egalarining ijod namunalarini, mitti hikoya va ertaklar o'quvchilarimizning bilimga bo'lgan qiziqishining oshishi, ular qalbida Vatanga muhabbat ruhining uyg'onishida va, o'z navbatida, dunyoqarashining o'sishida muhim omil bo'lmoqda. Ayniqsa, endigina kurtak otayotgan iste'dodlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida berib borilayotgan she'r, o'quvchilar tomonidan chizilgan suratlar respublikamiz yoshlari qatori jizzaxlik o'quvchilar iqtidorining shakllanishida ulkan hissa qo'shayapti.

JIZZAXIM

*Jizzaxim! Tanho va tabarruk go'sham,
Ko'rkam jamolingga oshufta dilim.
Niyatim, koringga hissamni qo'shsam,
Senga tahsin aytib tolmasa tilim.*

*Oboddir har qishloq, har bir mahalla,
Havosi musaffo, shaharlar ko'rkam.
Mangu qo'shiq bo'lgan misoli alla,
Jizzaxim! O'zingsan suyugim, erkam.*

*Buyuklarga mangu beshik – Jizzaxim,
Mehmonlarga ochiq eshik – Jizzaxim.
Nurlarga yo'g'rilib unib o'ssganim,
Baxshilar kuylagan qo'shiq – Jizzaxim.*

Maftuna KELDIYOROVA,
Do'stlik tumani

«Bilimlar bellashuvi»ning Respublika bosqichida ishtirok etgan 9-umumta'lim maktabining ikki nafar 7-sinf o'quvchisi Azizbek Totliboyev tarix fanidan ishtirok etib, 95 ball olishga

ni, «Prezident asarlari bilimdoni» ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida 12-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi D. Anor-

YUKSAK MAQSADLAR YO'LIDA




Mamasoli ALQAROV,
Jizzax viloyati, Paxtakor tumani
XTMFMT va TE bo'limi mudiri:

– «Sog'lom bola yili»da ta'lim muassasalari zimmasiga jismoniy sog'lom, har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlaydigan, intellektual salohiyatga, chuqur bilim va zamonaviy dunyoqarashga ega, Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun qayg'uradigan, mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash vazifalari yuklatildi.

Ilg'or ish tajribasiga ega o'qituvchilarimiz tomonidan pedagogik texnologiyalar asosida «Ochiq darslar» tashkil qilindi. «Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi» ko'rik-tanlovida 11 nafar o'qituvchimiz g'olib bo'lishdi.

erishdi, 8-sinf o'quvchisi Ilyos Xurazov informatika fanidan ishtirok etib, 90,3 ball olishga erishdi.

«Chimyon sadosi» sayyohlik ko'rik-tanlovining Respublika bosqichida tuman «Barkamol avlod» markazi jamoasi faxrli o'rinni, «Jaholatga qarshi ma'rifat» ko'rik-tanlovining respublika bosqichida 9-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi Z.Boyjigitov 3-o'rinni, «Diydor» guruhi 1-o'rinni egalladi. Shuningdek, «Konstitutsiya – baxtimiz poydevori» ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida insho yo'nalishida ushbu maktabning 8-sinf o'quvchisi M. Allayorova 1-o'rinni, 1-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi F.Bektemirov 3-o'rin-



boyeva 3-o'rinni egalladi. Ushbu o'quv yilida ham o'z oldimizga tajribali o'qituvchilarning faoliyatini ommalashtirish, ta'lim-tarbiya jarayonida ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'yicha yuqori natijalarga erishishni maqsad qilib qo'ydik.

Vaqtan yutgan yutadi, deydi dono xalqimiz. Bugungi kunda orangizda bu gapga amal qilib, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazayotgan tengdoshlaringiz talaygina.

«MUSTAQILLIK – MENING TAQDIRIMDA»

festivalining respublika bosqichi bo'lib o'tdi

Yaqinda «Mustaqillik – mening taqdirimda» mavzusidagi «Barkamol avlod» bolalar festivalining respublika bosqichi bo'lib o'tdi. Ilk marotaba o'tkazilgan mazkur festivaldan ko'zlangan maqsad, siz, aziz o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etish, ijodkorlikni targ'ib qilish, qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishdan iboratdir.

Festivalda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va barcha viloyatlarning «Barkamol avlod» bolalar markazlarining tuman, viloyat bosqichida g'olib bo'lgan to'garak a'zolari o'zlarining ijodiy ishlari bilan ishtirok etdi. «Sog'lom bola yili» Davlat dasturi doirasida tashkil etilgan festivalda mamlakatimizdagi 211 ta «Barkamol avlod» bolalar markazlari to'garaklarining 10 mingga yaqin o'quvchisi faol qatnashdi. 6 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan o'g'il-qizlar texnika, o'lkashunoslik va ekologiya, tasviriy san'at, liboslar dizayni yo'nalishi bo'yicha o'z bilim va mahoratini namoyish etdi.

Iqtidorli o'quvchilarning har bir ijodiy ishlarida mustaqillik madhi aks etganini, ayniqsa, yosh musavvirlarning qalam-tasvir yo'nalishida tayyorlagan ishlarida Istiqol yillarida erishilgan yutuqlar, bunyodkorlik ishlari, bolalik quvonchilari va o'zlari yashab turgan qishloq, mahalla tabiatini kuzatish mumkin.

Jizzax shahridagi 11-umumta'lim maktabi o'quvchisi

Shohjahon Anvarovning chizgilarida ham yoshlarning erishayotgan yutuqlari, mustaqilligimizning 23 yillik tantanalari mohirona aks ettirilganini alohida ta'kidlash o'rinni.

Festival so'ngida g'oliblarga maxsus diplom va esdalik sovg'alari topshirildi.

Paxtakor tumanidagi 12-umumta'lim maktabi

O'QUVCHILARI HAQIDA HIKOYALAR

KELING, FRANSUZCHA GAPLASHAMIZ

Munisa Fozilova 8-«B» sinf o'quvchisi. U fransuz tilida bemalol so'zlasha oladi. Munisadagi iqtidorni sezgan fransuz tili fani o'qituvchisi Norbuvi opa Norboeva uni «Yosh tarjimonlar» to'garagiga qabul

ildi. Chet tillari fan oyligida o'tkazilgan turli tanlovlarda g'oliblikni qo'lga kiritib, ustozlari shonchiga sazovor bo'ldi.

Nihoyat, uning oilanin bilimlarini sinovdan o'tkazadigan kun ham keldi. 2014-yil «Bilimlar bellashuvi»ning tuman bosqichida fransuz tili fani bo'yicha 1-o'rinni olgan o'quvchi endi nafaqat maktabi, balki tuman sharafini ham himoya qilishi kerak edi. Bellashuvning viloyat bosqichi ham bo'lib o'tdi. Ichkaridan birining ko'zlarida yosh, boshqalari xursandchiligini ichiga sig'dira olmayotgan o'quvchilar birin-ketin chiqib boshladi. Norbuvi opa ular orasidan shogirdini izlardi.

Mana u, ko'zlari qvonchdan porlab, ustozlari oldiga yugurib keldi va: - Ustoz! 1- o'rin! - deya oldi, xolos. Ustozlari o'zining mehnati besamar ketmaganligi va shogirdining bu yutug'idan boshi ko'klarga yetdi. Endi ustoz-shogird oldida yana ham katta dovon - «Bilimlar bellashuvi»ning respublika bosqichi turar edi. Mazkur bosqichda ham muvaffaqiyatli ishtirok etgan Munisaning zimmasida mas'uliyat hissi yanada ortdi.



USTOZIMGA O'XSHAGIM KELADI

Men ustozim Zebo opa Alimovaga o'xshagan boshlang'ich sinf o'qituvchisi bo'lmoqchiman. Goho ustozimga o'xshab o'zimcha she'rlar to'qishga harakat qilaman. Onajonim ijod namunalari o'qib, juda xursand bo'lalilar va meni mehr-la bag'irlariga bosib, bu qizim ustoziga o'xshaydi, deb qo'yadilar.



Yoz-yoz, deb qo'lim tutgan, Nutqimni ravon etgan. Doimo g'olib chiqqan, Mehribonim ustozim, Onajonim ustozim.

So'zi shirin, misli oy, Bilimlarga juda boy. Mehri daryo, toshqin soy, Mehribonim ustozim, Onajonim ustozim.

Dildora RUSTAMOVA, 4-«A» sinf o'quvchisi

POYTAXTGA SAYOHAT

Bizning Vatanimiz juda chiroyli, odamlari mehmondo'st va bolajon. Bugungi kunda bizlarga juda katta imkoniyatlar eshigi ochib berilgan. Biz bilimimiz bilan har qanday chet elliklar bilan bellasha olishimiz mumkin ekan. Buni bizga ustozimiz Jumagul opa aytdilar.



Dadam bu yil bizni Toshkent shahriga olib bordilar. Poytaxtimiz ko'chalarini, qurilayotgan inshootlarni ko'rib, ko'zimiz quvondi. Mustaqillik maydoni, Amir Temur xiyoboni, bolalar uchun turli o'yingohlarni ko'rib, hayratlandim. Shu kuni oilamiz va men juda katta taassurotlar bilan qaytdik.

Shohjahon EGAMOV, 1-«A» sinf o'quvchisi

FOTIMA VA ZUHRA RAQS TUSHGANDA...

Opa-singil Fotima va Zuhra Rahmonqulovalarning raqs bilan shug'ullanishida, avvalo, oilada otanasining san'atga bo'lgan qiziqishi sababdir. Qolaversa, ustozlari Zebo Turdiyeva qizlarga raqsning nozik qirralari, sir-asrorlarini o'rgatib keladi. Hozirda maktabning 7-«A» sinfida o'qiydigan egizaklarning kattasi gullarni parvarish qilishni yaxshi ko'radi. Uning aytishicha, gullar insonni doim yaxshilik qilishga undar ekan. Zuhra esa ko'proq badiiy kitoblarni o'qiydi. Sevim mutolaa qiladigan kitobi «O'tkan kunlar».



Qizlar o'zbek milliy raqsularidan «Andijon polkasi», «Xorazmcha» hamda «Gulbahor» deb nomlangan raqslarni ijro etib, bir qancha tanlovlarda faxrli o'rinlarni egallab kelishmoqda. Yaqinda bo'lib o'tgan «Kamalak yulduzlari - 2014»

Respublika bolalar ijodiyoti festivalining viloyat bosqichida ishtirok etishdi.

Kelajakda Fotima va Zuhralar dunyo sahnalarida ham milliy raqsularimizni namoyish etishlarini niyat qilib qolamiz.

ISTIQLOLGA TENGDOSH MAKTAB

2010-yildan buyon maktab umumjamoa hisobida fan olimpiadasi va «Bilimlar bellashuvlari»ning viloyat bosqichlarida faxrli 1-o'rinni egallab kelmoqda.

22-ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabi tashkil etilishining mustaqillik yillariga to'g'ri kelishi shunchaki tasodif emas, bu yurtimizda iqtidorli yigit-qizlarga ko'rsatilayotgan cheksiz e'tibor va g'amxo'rlikning yorqin namunasidir.

Maktabda 6 ta fan, jumladan, matematika, ingliz tili, kimyobiologiya va fizika fanlari chuqur o'qitilmoqda.

O'quvchilar o'rtasida o'tkazilgan «Siz tarixni bilasizmi?», «Siz qonunni bilasizmi?», «Giyohvandlik va OITS - umr zavoli» ko'rik-tanlovlari, shuningdek, «O'zbekiston mustaqil diyor» mavzusida o'tkazilgan rasmlar ko'rgazmasida, «Konstitutsiya baxtimiz poydevori» ko'rik-tanlovining Respublika

miqyosida qatnashib, faxrli 1-, 2-, 3-o'rinlarni egallashdi.

Maktabda faoliyat ko'rsatayotgan kino-foto to'garak qatnashchilari har yili Respublika miqyosida o'tkazilib kelinayotgan «Sehrii yog'du» kino-foto festivalida ishtirok etishadi. Hozirgi kunga qadar 29 ta qisqa metrajli filmlarni suratga olishgan. Ushbu filmlarning 18 tasi Respublikada o'tkazilgan «Sehrii yog'du» bolalar kino festivalida faxrli o'rinlarni egallagan.

«O'lakashunoslik» to'garagi a'zosi Mashhura Jalolova «Kecha, bugun,



H. HAMIDULLAYEV olgan surat

ertaga» ekologik anjumanida qatnashib, Respublikada 2-o'rinni qo'lga kiritgan.

Mazkur o'quv yillarida maktabning xalqaro hamkorlik ishlari ham o'z natijasini berdi. Maktab rahbarining sa'y-harakati bilan O'zbekistondagi AQSH va Buyuk Britaniya elchixonalari tomonidan maktabda ingliz tili kutubxonasi tashkil etildi. «Maktab, oila, kutubxon va jamoat tashkilotlari» marafonida O'zbekistondagi BMT vakolatxonasini ham jalb etishga erishildi va kutubxonaga 500 ga yaqin lotin alifbosidagi kitoblarni sovg'a qilindi.

IZLANISHLAR SAMARASI

G'allaorol tumanidagi 15-bolalar musiqa va san'at maktabida birgina xalq cholg'u sozlari yo'nalishi bo'yicha 60 nafar o'quvchi O'tkir aka O'sarov rahbarligida qashqar rubobi, g'ijjak va nay sozlarini chalish sirlarini qunt bilan o'rganishmoqda.

Bu yoshlar har yili viloyat va respublika miqyosida o'tkaziladigan qator tanlovlarda muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritmoqdalar. Jumladan, iqtidorli o'quvchilardan Gulmira Bahromova o'tgan yili «Kelajak ovozi» respublika iste'dodlar tanlovida qatnashib, birinchi darajali diplom bilan taqdirlandi.

Maktabning Alisher aka Donishbekov rahbarlik qilayotgan tasviriy san'at yo'nalishida ham iqtidorli o'quvchilar talaygina. Bolajonlar, asosan, qalamtasvir yo'nalishida ijod qilishmoqda. Yosh musavirlardan Shahlo Arslonqulova va Jamol G'aniyevlarning «Mening qishlog'im», «Baxtli bolalik» singari rasmlari ko'pchilikning e'tirofiga sazovor bo'ldi.

Inson doimo go'zallikka intilib yashaydi, borliq mo'jizalaridan zavq oladi. San'atsevar o'quvchilar erishayotgan muvaffaqiyatlar, mo'jaz ijod namunalari orqali kelgusida yuksak cho'qqilarni zabt etsalar, ajabmas.

Feruz ABDULLAYEVA

KELAJAK YULDUZI

Jizzax tumanidagi 42-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi Zohidjon Suvonqulov maktabda tashkil etilgan «Guldasta» musiqa to'garagi a'zosi.

U ustoz, to'garak rahbari Abdurashid Abduxoliqovdan juda xursand. Zohidjon bir necha cholg'u asboblarni bemalol chala oladi. U maktabda o'tkaziladigan turli tadbirlarda faol ishtirok etishi bilan bir qatorda ko'pgina tanlovlarda yuqori o'rinlarni egallab kelmoqda. 2013-yil «Kamalak yulduzlari» bolalar ijodiyoti ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida estrada yo'nalishi bo'yicha 2-o'rin sohibi bo'ldi. 2014-yilda ham mazkur tanlovning viloyat bosqichida faxrli o'rinini egalladi.

Zohidjon Suvonqulov kelajakda Ma'murjon Uzoqov singari el suygan hofiz bo'lish niyatida. Biz yosh iste'dod sohibining kelgusidagi ijodiy ishlariga muvaffaqiyat tilab qolamiz.



MATEMATIKA O'QITUVCHISI BO'LMOQCHI

Inson dunyoga kelar ekan, o'z oldiga ulkan maqsadlar qo'yib, unga erishish uchun harakat qiladi.


Jizzax viloyati, Do'stlik tumanidagi 17-boshlang'ich ta'lim maktabining 4-«V» sinf o'quvchisi Xurshid Hakimov ham shaxmat-shahka sirlarini qunt bilan o'rganib, yetuk sportchi bo'lish niyatida. Bolakay sinf xonasida osig'liq turgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmi qarang so'z berdi: «Men, albatta, ishonchingizni oqlayman!»

Ha, Xurshid so'zining ustidan chiqdi. Birinchi

sinfdan to shu kunga qadar barcha fanlardan faqat a'lo baholarga o'qidi. Qoyil qolarli jihati, Xurshid bir necha xonali sonlarni qo'shish, ko'paytirish, bo'lish va shu kabi amallarni hech qanday texnik vositalarsiz amalga oshirish qobiliyatiga ega. Kamgap, biroq ziyrak qahramonimiz o'zi hadda gapirishni xohlamadi. Faqat bolalarcha jilmayib: «Sinfdoshlarim Sevinch Mamadaliyeva va Uchqun Boborahimov uyma vazifalarini tayyorlashlarida yordam berib kelaman. Maylimi, hozir ularga ko'maklashsam?!», deya sinfdoshlari oldiga oshiqdi.

Xurshid otasi, ustoz kabi zo'r matematik bo'lmoqchi. Maktabda bo'lib o'tadigan musobaqalarda uning oldiga tushadigani yo'q.

Yurtimizda fan-texnika taraqqiyoti, ta'lim sohasi jadallashib borayotgan bir davrda yoshlarga bo'lgan e'tibor ham ortib borar ekan, Xurshid Hakimov singari ana shunday imkoniyatlardan foydalanishga intilgan iqtidorli o'quvchilarimiz bugun ko'plab topiladi. Ajabmaski, bu o'quvchi vaqti kelib ustozlari kabi fidoyi o'qituvchi bo'lib yetishsa. Zero, intilganga tole yor!



YOSH IXTIROCHILAR MASKANI

Abdulkhalkim Ochilov ko'p yillardan buyon Zafarobod tumanidagi 12-umumta'lim maktabida rasm va chizmaxilik fanidan dars beradi.

Ustozning yaratgan ixtirolari, haykaltaroshlik ishlari namunalari bugungi kunda ko'plab ta'lim muassasalarini bezab turibdi.

Abdulkhalkim aka maktabda «Aviamodel» to'garagini boshqarib keladi. Uning shogirdlari viloyat, respublika tanlovlarda faxrli o'rinlarni egallab kelmoqda. Jumladan, Rahimberdi Abdurahmonov 2012-yili «Kosmik raketalarni modellashtirish» respublika tanlovida faxrli 2-o'rinini egalladi.

Ustoz shogirdlari orasida alohida faxr bilan 9-sinf o'quvchisi, o'g'li Ilyos Quvvatov haqida to'xtalib o'tishni yaxshi ko'radi. U maktabning «Kamolot» YOIH a'zosi, sinf sardori, tashabbuskor va tashkilotchi o'quvchilaridan biri sanaladi. Tuman va viloyat tanlovlarda faol ishtirok etib keladi. O'tgan yili viloyat «Barkamol avlod» bolalar markazi tomonidan tashkil etilgan «Xonada uchuvchi samolyot modellari» tanlovida faol ishtirok etganligi uchun taqdirlangan. Shuningdek, u «Iqtidorli yoshlar – Vatan ravnaqi yo'lida» respublika ko'rik-tanlovida III darajali diplom bilan taqdirlandi.

Ilyos Quvvatov shu bilan birga huquq, tarix va algebra fanlariga qiziqadi. «Bilimlar bellashuvi»ning tuman bosqichida ishtirok etib, matematika fanidan faxrli o'rinlarni egallab keladi. Navbatdagi tanlovda huquq fanidan qatnashish uchun hozirdanoq tayyorgarlik ko'rmoqda.

Shukrulla G'ULOMOV

TO'GARAKLAR – JAVOHIRLAR SANDIG'I

Bolalikdan tikish-bichishga havasi baland Munis maktabga chiqqanida bu kasbga bo'lgan qiziqishi yanada ortdi. Ustoz Ulbo'sin Abirqulovadan hunar sirlarini qunt bilan o'rgana boshladi.



Bir kuni buvisining sandig'ida tugallanmay qolgan so'zana va bir qancha qadimiy naqshlarni ko'rib, xuddi yo'qotganini topib olganday quvonib ketdi. Buvisining ishini davom ettirishga kirishdi. Hademay so'zana tayyor bo'ldi. Tovlanib turgan quyosh, zangori osmon va yetti turdagi kamalak rangi matoda o'zgacha jilolana boshladi.

Tajribali pedagog Ulbo'sin Abirqulova rahbarligidagi «Mohir qo'llar» to'garagiga 16 nafar o'quvchi a'zo bo'lib, ular munchoqli taqinchoqlar, badiiy kashtachilik, so'zana tikish kabi xalq hunarmandchiligini puxta o'rganmoqdalar. Ayniqsa, Munis Yo'ldosheva, Nozima Usmonova va Charos Bozorboyevlar tomonidan bajarilgan nafis matolardagi ko'zni qamashtiruvchi ipaklar jilosi va ranglar uyg'unligini ko'rib, havas qilasiz.

Abdualjalol aka Danaboyev rahbarligidagi «Shodlik» badiiy havaskorlik to'garagi a'zolari har yili turli ko'rik-tanlovlarda qatnashib keladi. «Sog'lom bola yili»da yosh ijrochilardan O'tkir Sultonov an'anaviy xonandachilik bo'yicha tanlovning respublika bosqichida ishtirok etdi.

Shuningdek, ingliz tili, yosh matematiklar hamda futbol to'garaklari faoliyati ham maqtovgva arzigulik. G'allaorol tumanidagi 22-umumta'lim maktabida hozirda 25 ta to'garak mavjud bo'lib, ularga 620 nafar o'g'il-qiz qatnashmoqda.

Abdulla SAIDOV

Lesson 15

FUTURE WORLD CHAMPIONS
(Bo'lajak jahon chempionlari)



THE HOST OF ABILITY
(Iste'dod egasi)

Zamira ABDUSHUKUROVA the pupil of 42th school on form 7 in Jizzakh district. She is excellent pupil, she likes the literature. In her free time she practices to write poems. In the circle «Clever hands» she fonds of gold brocading shop. The young designers creative works decorate the school holidays all the time.

EXCELLENT PUPIL OF CLASS
(Sinf a'lochisi)

Azizbek DONIYOROV the pupil of 22th school in Jizzakh city. He takes up to basketball and he is a very good player. Azizbek fonds of English and mother tongue. After classes he goes to his additional courses from English and history.



Umida UMAROVA

MODAL VERBS
(Modal fe'llari)

Learn by heart

Can and Could

Can modal fe'li Infinitive (fe'ning noaniq shakli) bilan kelib, ish-harakatni bajarish imkoniyatini, qobiliyatini ifodalaydi, o'zbek tiliga «qila olmoq» deb tarjima qilinadi hamda hozirgi va kelasi zamonlarda ishlatiladi. Agar ish-harakat o'tgan zamonda bo'lsa, u Could + V orqali ifodalanadi.



For example: I can swim.
He can speak English.




I could run very fast when I was 16.
We could read French books at school.

Savol shaklida can/could egadan oldinga o'tadi, inkor shaklida esa «can» va «could»ga «not» inkor yuklamasi qo'shiladi.

For example: Can you open the door, please?
Shakhlo and Aziza couldn't come to the birthday on Sunday.


Dinara SHAKIROVA tayyorladi

7 WORDS FOR 7 DAYS
(7 kunga 7 so'z)



Nafisa ALMANOVA,
Jizzax shahar 22-IDUM ingliz tili o'qituvchisi

In Jizzakh city 22th of boarding school has a lot of talented pupils. Because there are many sport circles. Fotima KOMILOVA is a coach from acrobatics and 25 girls in it. In short period these girls achieved good improvements such as: the pupil of form 5-«A» Asila OLIMJONOVA took part a competition in Samarkand region and took the 1st place. Ruxshona ZOKIRJONOVA from 5-«B» was a champion of Uzbekistan. Elnura MUSADDINOVA is a little girl in spite of this she also took part in a competition and got 1st place in Samarkand district. Not only these, they are preparing to a new competition in Russia, 2015.



TAKE OR GET



Take

- Take an exam
- Take a photo
- Take your time
- Take a sit
- Take the bus

Get

- get a letter
- get home
- get dressed
- get a job
- get up



Exercise 1. Fill the gaps, using take and get expressions.

1. He has not his own car. He always ... !
2. She earlier at 6 o'clock today.
3. My father is photographer. He !
4. I live alone in another country. So every month I from my parents.

Nozima YO'LDOSHEVA,

O'zDJTU qoshidagi 1-akademik litsey o'quvchisi

WINTER CROSSWORD

Ibrohim FAYZIRAHMONOV

MEHR, ZIYO YOG'ILGAN MAKON

Purviqor Zomin tog'lari bag'rida kezib yurgan chog'imizda ona zaminimizning qanchalar bebaholigiga amin bo'lganmiz. Yam-yashil archazorlar bilan yastanib turgan bu mislsiz makonning qiyosiga-qiyos izlaymiz.

Ijod ahlining ilhom manbayiga aylangan bu so'lim go'shada ko'ngillar yayraydi.

Gazetamizning Jizzax viloyatiga bag'ishlangan maxsus sonida bu tuproqning yoshlari ijodidan namunalar berishga chog'landik. Tahririyatimizga o'z dilonmalarini yo'llayotgan jizzaxlik ijodkor o'quvchilar o'zlarining beg'ubor olami bilan alohida o'rin tutadi. Yaxshisi, siz ham mehr, ziyo yog'ilgan makon farzandlarining ijodidan bahramand bo'ling.

ISTIQBOLIM



Men Vatanim kamoliman,
So'nmas umid shamchirog'i.
Kamolotga intilaman,
Samodagi Humo kabi.

Men bu zamin iftixori,
Qalbdan mehr jo'sh uradi.
Olg'a qadam bosay mudom,
Ishonch menga do'st bo'ladi.

Yoshlik zavqi boshlar meni,
G'ayratga, ham shijoatga.
Har bir kitob chorlar meni,
Ilim-u ziyo, ma'rifatga.

Baxtim bugun qanchalik soz,
Istiqbolim porloq quyosh.
O'zbekiston farzandiman,
Omad erur menga yo'ldosh.

Mohinur NARZULLAYEVA,
Paxtakor tumanidagi
1-umumta'lim maktabining
8-«B» sinf o'quvchisi

QALBGA YORUG' CHIROQSIZ

Qalbga yorug' chiroqsiz,
Hech so'nmayisiz biroq siz.
Adashganga mayoqsiz,
Shoir Muhammad bobo.

Qalbingiz hur edi-ya,
So'zingiz dur edi-ya.
Yog'ilar nur edi-ya,
Shoir Muhammad bobo.



Dilda armon cho'g'i bor,
Bo'g'zimda bir yig'i bor.
Ko'rmadim sizni bir bor,
Shoir Muhammad bobo.

Aziza XO'JAKELDIYEVA,
Mirzacho'l tumanidagi
Agroiqtisodiyot kasb-hunar
kolleji o'quvchisi

QANOT YOZGAN TURNALAR

Sizga havas qilaman,
Ko'kka tikib nigohim.
Qanot yozgan turnalar,
Mening ko'ngil sipohim.

Har zamon tashrifingiz,
Qaytarib bo'lmas holat.
Ilon izi yo'lingiz,
Ahillikdan dalolat.

Meni shoshirmang aslo,
Ortib borar ishonchim.
Siz-la uchgim keladi,
Samolar bag'rida jim.

Sitora RAHIMZODA,
Zafarobod tumani

QOR

Pag'a-pag'a yog'ib qor,
Qalblardan quvar g'ubor.
Qishning ham o'z gashti bor,
Uchmoqqa chang'i tayyor.

Yoshlar shovqin-suroni,
Barcha dilni quvnatar.
Qorning sovuq bo'roni,
Daryolarni muzlatar.

O'ylab dehqon ertasin,
Yer yopinar ko'rpsin.
Qor shod etib dehqonni,
Yozga shaylar ketmonni.

Javohir UBAYDULLAYEV,
G'allaorol tumanidagi
67-umumta'lim maktabining
9-sinf o'quvchisi

TINCHLIK BARQAROR BO'LSIN

Go'zal hayot gullasin,
Omad doim yor bo'lsin.
Baxtimizga dunyoda,
Tinchlik barqaror bo'lsin,

Istiqloq boqiy bo'lib,
Jaranglasin har tilda,
Ezguliklar hosilin,
Farovon etsin elga.

Zumrad TOSHMURODOVA,
Zomin tumanidagi 6-umumta'lim
maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi



Muhammadsobid NAZARALIYEV, Zomin tumanidagi 6-umumta'lim maktabi o'quvchisi



Suyun TOYLOQOV, Zomin tumanidagi 6-umumta'lim maktabi o'quvchisi



O'g'iloy AHMEDOVA, Jizzax tumanidagi 10-umumta'lim maktabi o'quvchisi



Farangiz EGAMBERDIYEVA, G'allaorol tumanidagi 52-umumta'lim maktabi o'quvchisi

Kechasi yog'a boshlagan yomg'ir ertalabga yaqin qorga aylandi. Yalang'och daraxt shoxlari, tom bo'g'otlaridan tomib turgan billur tomchilar muzlab yaltiraydi. Peshinga yaqin yer yuzi oynaday sirpanchiq bo'ldi-ko'yd.

Darslami tugatib, shovqin-suron bilan qaytayotgan bolalarning qiy-chuvi ko'chani tutgan: birlari osilib qolgan daraxt shoxlarini silkir, yana birlari qorbo'ronni boshlab yuborgan.

Maydalab yog'ayotgan qorga yuzlarini tutib borayotgan aka-uka Asatulloh bilan Abdumajid o'z ko'chalariga burildi.

Abdumajid ikki-uch qadam oldinga o'tib yelkasidagi sumkasini tuzatdi-da,

yerdan qor olib, Asatullohga otdi. Asatulloh chap berib qoldi. Qor to'p etib yerga tushdi. Abdumajid yerdan yana qor olib otmoqchi bo'lganida, ko'zi akasidan orqaroqda kelayotgan

HASSA

(Hikoya)



qo'shni, Ergash otaga tushdi. Ota hassasiga suyanganicha asta yurib kelardi.

Ukasining angrayib qolganini ko'rgan Asatulloh ham orqasiga o'girilib, zo'rg'a yurib kelayotgan otaga ko'zi tushdi. Xayolan sirpanchiqda yurolmayaptilar, deb o'yladi. Shu chog'da ota sirpanib bir chayqaldi-da, gup etib yerga o'tirib qoldi. Qo'lidagi hassa ancha nariga uchib ketdi.

Asatulloh chopib borib otaning qo'ltig'idan tutdi, lekin ko'tara olmadi.

Abdumajid ham qo'lidagi qorni tashlab, yordamga yugurdi. Otaning ikki qo'ltig'idan tutgan

aka-uka qanotga aylanib, boboni avaylab turg'azishdi. Ancha nariga uchib ketgan hassani Abdumajid yerdan olib uzatdi.

– Mana hassangiz.

– Hassani qo'yatur, bolam, – dedi ota bolalarga mehr va minnatdorlik bilan tikilib, – siz ikkingiz menga yaxshi suyanchiq bo'ldingiz, yuringlar, – dedi.

Aka-uka otaning qo'lidan tutganlaricha asta qadam bosdilar. Qo'shni darvozasigacha kuzatib qo'ydilar.

Abdumajid darvoza eshigini ochib, qo'lga hassasini tutganda:

– Rahmat, bolalarim, mening eng ishonchli suyanchig'im – hassam siz ekansizlar, – deb otaxon aka-ukani alqab, uzoq duo qildi.

Abdulhay NOSIR



Mehnat ta'limi o'qituvchisi Matluba Azizova maktabda «Mohir qo'llar» to'garagida o'quvchi-qizlarga to'quvchilik, kashtachilik, zardo'zlik, tikish-bichish sirlaridan saboq bersa, «Orasta qizlar» to'garagida ularga uy-ro'zg'or yumushlari-yu, pishiriq

Zomin tumanidagi 6-umumta'lim maktabida ham o'quvchilar bilimini boyitish maqsadida ko'plab to'garaklar faoliyat yuritmoqda. «Yosh kimyogarlar», «Yosh ijodkorlar», «Mohir qo'llar», «Yosh tarjimonlar», «Orasta qizlar», «Yosh fiziklar», «Yosh sportchilar» va yana o'nlab to'garaklarni sanashimiz mumkin.

va taomlar tayyorlash sirlarini o'rgatadi. Ustozning mehnatlari samarasi o'laroq, yaqinda tumanda bo'lib o'tgan «Zulfiyaxonim qizlari» ko'rik-tanlovida maskan o'quvchilaridan Z u m r a d Toshmurodova va Sarvinoz Shavkatova to'qish, bichish-tikish yo'nalishlari bo'yicha ishtirok etib, tengdoshlari

o'rtasida faxrli o'rinlarni qo'lga kiritishdi.

Matluba opa qizlarni sportga jalb etishga ham o'z hissasini qo'shmoqda. U maktabda «Qizlar qo'l to'pi» to'garagiga rahbarlik qilib, jamoa shakllantirdi. Nodira Sattorova, Maftuna Sattorova, Iroda Nurmuhammadova, Madina O'rolova, Jamila Qudratova, Diyora Yo'ldosheva, Muxlisa Hasanovalar tuman miqyosidagi maktab va kollej qo'l to'pi jamoalari bilan kuch sinashib, tuman va viloyat bosqichlarida ishtirok etib, faxrli o'rinlarni qo'lga kiritishdi.

Ushbu amalga oshirilayotgan ishlar va erishilayotgan yutuqlar zamirida fidoyi ustozning mehnatlari katta, albatta. Biz tinib-tinchimas Matluba Azizovaning shogirdlari bundan-ya yuksak marra-larni egallashlariga tilakdoshmiz.

XALQARO TURNIR G'OLIBI



Endigina olti yoshni qarshilagan Shohjahon Telmanov Jizzax shahridagi 22-IDUM 1-sinfida o'qiydi. U besh yoshidan boshlab mazkur maktab qoshida tashkil qilingan shaxmat to'garagiga qatnaydi.

Ustozi, Osiyo chempioni, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindori Yulduz Hamroqulovadan ushbu sport turi sirlarini o'rgana boshladi. 1-bolalar va o'smirlar sport maktabida o'zining iste'dodini namoyon qildi, avvaliga guruh g'olibi, so'ngra esa sport maktabida g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Shohjahon o'tgan o'quv yilida shahar, viloyat chempionatlarida sovrinli o'rinlarni egallashga muvaffaq bo'ldi. Joriy yilda Toshkent shahrida o'tkazilgan respublika musobaqasida 2-o'rinni egalladi. Yosh istiqbolli shaxmatchi Shohjahon Telmanov Osiyo chempionatining saralash musobaqasida ajoyib natija ko'rsatdi. Bundan tashqari, olti yoshli sportchi sentabr oyida Malayziyaning Kuala-Lumpur shahrida o'tkazilgan xalqaro turnirda 6 yoshgacha bo'lgan o'g'il bolalar o'rtasida 7,5 ochko jamg'arib, 1-o'rin sohibi bo'ldi. Yurtimiz sha'nini ko'klarga ko'tarishda iste'dodli yosh shaxmatchidan yangi g'alabalar kutib qolamiz.

ARNASOYLIK SPORTCHILAR FAOL

Arnasoy tumanidagi 13 ta umumta'lim maktabida qishki sport zali mavjud bo'lib, 2014–2016-yillarda yana 5 ta maktabda sport zali qurish rejalashtirilgan.

Tumandagi bolalar va o'smirlar sport maktablarida bugungi kunda qariyb uch mingga yaqin o'g'il-qizlar sportning 9 ta turi bo'yicha shug'ullanishmoqda. Bolalar va o'smirlar sport maktabining 42 ta seksiyasida 500 dan ortiq yoshlar muntazam qatnashib kelmoqda. O'quvchilardan Anvar Abdurazzoqov basketbol, Muslima To'rayeva voleybol bo'yicha viloyat terma jamoasi safiga qo'shildi.

O'quvchilar jamoasi sportning voleybol, kurash, futbol, badiiy gimnastika kabi turlari bo'yicha viloyat birinчилиgida faxrli o'rinlarni egallab kelishmoqda.

Tumanda qizlar o'rtasida ham sportni rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda. 1-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi Muslima To'rayeva sportning voleybol turi bo'yicha olti yildan beri shug'ullanib keladi. Uning joriy yilda «Umid nihollari»ning viloyat bosqichida faxrli 2-o'rinni egallagani tengdoshlarini ham sport bilan faol shug'ullanishlariga rag'batlantirdi.

O'ZBEKISTON CHEMPIONI

Jamshid Qarshiboyev Zarbdor tumanidagi 3-umumta'lim maktabining 7-«B» sinf o'quvchisi. Uning sportga bo'lgan muhabbati to'qqiz yoshidan uyg'ongan. Murabbiy Jalol Ashurov uning milliy kurashga bo'lgan qobiliyatini sezib, shogirdlikka oldi.

Jamshid ilk marta Mirzacho'l tumanida bo'lib o'tgan musobaqada ishtirok etgandi. O'shanda 11 yoshli bolakay to'rtta tuman polvonlari bilan kurashib, 1-o'rinni egallagandi. Yosh sportchining kurashga bo'lgan havasi tobora ortib, umidli polvon Navoiy viloyatida o'tkazilgan respublika chempionatida 2-o'ringa sazovor bo'ldi. O'tgan yili esa xalqaro turnirda 1-o'ringa loyiq topildi.

Jamshid faqat yaxshi kurashchi bo'libgina qolmay, balki a'lochi o'quvchi

hamdir, uning xorijiy tillarga ixlosi

baland. «Bilimlar bellashuvi»da faxrli o'rinlarni egallab keladi.

Maktabda darslarni a'lo o'zlashtirishida sinf rahbari Sanobar Eltoyevaning hissasi katta. U o'tgan noyabr oyida Jizzax olimpiya xazinalari kollejida bo'lib o'tgan O'zbekiston chempionati bahslarida «O'zbekiston chempioni» degan diplom sohibi bo'ldi. Mamlakatimiz terma jamoasiga qo'shildi. Jamshid Qarshiboyev hozirgi vaqtda a'lo baholarga o'qib, namunali xulqi bilan maktabdoshlariga o'rnak bo'lib kelmoqda.

Muhammadsodiq AMINOV





«Bizni suratga olishyapti...»



Asadulla USANOV, Jizzax tumanidagi 42-umumta'lim maktabi 6-sinf o'quvchisi. Rasm chizishga qiziqadi, matematika fani bo'yicha «Bilimlar bellashuvi»ning faol ishtirokchisi.



Zomin tumanidagi 5-umumta'lim maktabi ingliz tili o'qituvchisi **Sarvar Jo'rayev** har bir darsni interfaol usullardan foydalangan holda olib boradi.




Suyun TOYLOQOV, Zomin tumanidagi 6-umumta'lim maktabining 5-«B» sinf o'quvchisi. Tasviriy san'at uning jon-u dili.



Yangi yil kechasida qor yog'sa, ayni muddao bo'lardi...

N. SULTONOV, Z. MAMATQULOVA olgan suratlari

«JIZZAX MADHI» KRIPTOGRAMMASI



Avvalo, quyida ta'riflanib, raqamlarda ifodalangan kalit so'zlarni toping.

1. O'zbek olimi, mumtoz shoir, temuriy zoda hukmdorning Jizzax maskani haqida ma'lumotlar yozib qoldirgan nodir asari - 6, 9, 6, 14, 4, 2, 9, 13, 1.
2. «Tog'da o'sgan bola», «Tog'da o'sgan bola yoxud jiyanning yangi sarguzashtlari» qissalari muallifi, jizzaxlik adib - Oqiljon 11, 14, 12, 1, 2, 9, 15.
3. Viloyatga shimoli g'arbdan chegaradosh viloyat - 2, 1, 15, 9, 3, 20.
4. Jizzax hududidan oqib o'tuvchi eng katta daryo - 12, 1, 2, 7, 17, 9, 4.
5. Viloyatning sharqiy qismidagi tuman - 10, 22, 12, 5, 8, 3, 21.
6. Milliy sport turi - 21, 14, 4, 1, 18.
7. Qardosh millatlardan biri - 5, 9, 19, 3, 21.
8. Qazib olinadigan rangli metall ma'dan turi - 7, 14, 23.
9. Ommalashgan sport o'yini - 5, 16, 2, 2, 3, 12.

Endi kalit so'zlari javoblari asosida chizmadagi raqamlarda yashiringan kriptogrammani hal eting. Bunda ularning ichki qismidagi aylana bo'yicha to'rt misra she'r, atrofi bo'yicha esa she'r nomi hamda uning muallifi, jizzaxlik iste'dodli shoira ismi sharifini bilib olasiz.

Tuzuvchi: Husan ORIPOV

Maxsus sonni tayyorlashda yaqindan yordam bergan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining axborot xizmati xodimlariga, Jizzax viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi rahbariyatiga, «Kamolot ko'zgusi» gazetasi Bosh muharriri Baxtiyor Xudoyberdiyev va boshqa mutasaddilarga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Ushbu sonni tayyorlaganlar: F.Adilova, F.Matyoqubov, A.Karimov, Yu.Abdullayev, D.Hotamova, J.Matyoqubov, N.Abdullayeva, O.Tursunboyeva, Sh.Maxmadiyev, M.Ubaydullayeva, Z.Mamatqulova.

8

22-dekabr 2014

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir
Feruz ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV,
Abdug'ani XOLBEKOV,
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Sobitxon TURG'UNOV,
Zikrilla TESHABOYEV,
Feruz JALILOVA,
Sa'dullo TURSINOV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi
muharrir
Nurbek
QIDIRALIYEV
Rassom
Feruzbek
KAMOL o'g'li

Manzillimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tel./faks: 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni
chiqadi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 29417
Buyurtma - S 1674